

OZOD SHARAFIDDINOVNING ILMIY SHE'RIYAT TALQINI

Xakimbekova Malikaxon Abdullajon qizi
Farg'ona davlat universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ozod Sharafiddinov ning ilmiy merosida she'riyat talqini masalalari yoritiladi. Unda olimning she'riyat mohiyati, badiiy tafakkur, shoir shaxsiyati hamda davr ruhi bilan bog'liq nazariy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharafiddinovning she'riy asarlarni baholash mezonlari, badiiy til va mahoratga oid fikrlari ochib beriladi. Maqolada she'riyatning jamiyat hayotidagi o'рни va uning estetik ahamiyati olim qarashlari asosida asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida Ozod Sharafiddinovning o'zbek adabiy tanqidchiligidagi o'рни va uning she'riyat talqiniga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiy tanqidi, badiiy tafakkur, shoir shaxsiyati, estetik qarashlar, she'riy tahlil, badiiy til, adabiy mezonlar, ijtimoiy-estetik mazmun, lirika, adabiyotshunoslik.

Annotation

This article explores the issues of interpreting poetry within the scholarly legacy of Ozod Sharafiddinov. It analyzes the scholar's theoretical views on the essence of poetry, artistic thinking, the personality of the poet, and their connection with the spirit of the эпоха (era). Additionally, the article reveals Sharafiddinov's criteria for evaluating poetic works, as well as his ideas on artistic language and mastery. The role of poetry in social life and its aesthetic significance are substantiated based on the scholar's perspectives. As a result of the research, Ozod Sharafiddinov's place in Uzbek literary criticism and his contribution to the interpretation of poetry are highlighted.

Keywords: Uzbek literary criticism, artistic thinking, poet's personality, aesthetic perspectives, poetic analysis, artistic language, literary criteria, socio-aesthetic content, lyricism, literary studies.

Kirish

O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida Ozod Sharafiddinov ning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. U adabiyotshunos olim sifatida badiiy adabiyot, ayniqsa she'riyat masalalariga chuqur yondashgan. Uning ilmiy merosida she'riyat talqini, uning mohiyati, shoir shaxsiyati va badiiy tafakkur muammolari Zulfiya, Omon Matjon, M. Boboyev singari shoirlar ijodini o'rganish davomida tahlil etilgan. Bugungi kunda ham she'riyatni anglash va baholashda Sharafiddinovning nazariy qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, uning ilmiy merosida she'riyat talqinini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muhokama va natijalar

Adabiyotshunos olim Zulfiya she'riyatini tahlil qilar ekan, uning ijodida urush davri ruhiyati, Vatanga muhabbat va insoniy tuyg'ular uyg'unligini alohida ta'kidlaydi.tahlili

Ozod Sharafiddinov talqinlariga ko'ra, Zulfiya she'riyatining asosiy kuchi — undagi samimiylik, hayotiylik va go'zallik orqali g'oya berish tamoyilidir. Bu xususiyat “Oltin kuz” she'ridan olingan quyidagi parchada yaqqol namoyon bo'ladi:

“Sevaman oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go'zal chog'ingni,
Daraxtlar libosi rango-rang gulgun,
Kuzni erkalagan chaman bog'ingni.”

Mazkur parchada unda tashqi manzara tasviri ustuvor ko'ringani bilan, aslida chuqur ijtimoiy-estetik mazmun yashiringanini ko'rish mumkin. Sharafiddinov ta'kidlaganidek, Zulfiya urush davrida ham to'g'ridan-to'g'ri fojeani tasvirlashdan ko'ra, go'zallikni ulug'lash orqali urushga nisbatan ichki norozilikni ifodalaydi. Shu ma'noda, “oltin kuz” obrazi oddiy fasl emas, balki tinch hayot timsoli sifatida talqin qilinadi.

Biroq tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, bu kabi tasvirlarda ba'zan ortiqcha romantizatsiya unsurlari ham seziladi. Ya'ni real hayotdagi ziddiyatlar fonida tabiatning haddan ziyod idealizatsiya qilinishi she'rning dramatik kuchini biroz susaytiradi. Shunga qaramay, aynan shu uslub orqali shoira o'quvchini ruhiy jihatdan ko'tarishga, umid va go'zallikka ishonch uyg'otishga erishadi.

Zulfiya ijodining yana bir muhim jihati — fuqarolik pozitsiyasi va ichki faollik masalasi ilgari suriladi:

“Kuchim, oromim, qalbim kuchimni
Sening himoyangga keltirib tikdim.
Men jangdan uzoqda — oddiy soldatday,
Senga qurol yasab temirlar bukdim.”

Sharafiddinov bunday satrlarni tahlil qilar ekan, Zulfiya lirikasida shaxsiy kechinma bilan ijtimoiy burch uyg'unlashganini alohida qayd etadi. Bu yerda lirik qahramon o'zini “oddiy soldat”ga qiyoslash orqali umumlashma obrazga aylanadi. Ya'ni u — urush davridagi butun xalqning timsolidir. Shu bilan birga, tanqidiy jihatdan qaralganda, mazkur parchada publitsistik ohangning kuchayib ketishi kuzatiladi. Ba'zi ifodalar (masalan, “qurol yasab”, “temirlar bukdim”) badiiy obrazdan ko'ra, g'oyaviy da'vatga yaqinlashadi. Bu esa she'rning sof lirizmini ma'lum darajada cheklashi mumkin. Biroq aynan shu xususiyat o'sha davr adabiyoti uchun xos bo'lib, Zulfiya ijodining tarixiy-estetik qimmatini kamaytirmaydi. Aksincha, u she'riyatning hayot bilan uzviy bog'liqligini, san'atning ijtimoiy vazifa bajarishini tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinovning ilmiy merosida she'riyat masalalari keng va chuqur yoritilgan. U she'riyatni inson qalbining aks-sadosi, jamiyat hayotining badiiy ifodasi sifatida talqin qiladi. Tanqidchining qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy adabiyotshunoslik uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ozod Sharafiddinovning she'riyat masalalariga berilgan baholari, ayniqsa, Zulfiya ijodiga oid adabiy-tanqidiy qarashlar orqali yanada yorqin namoyon bo'ladi. Uning talqinlarida Zulfiya she'riyati faqat estetik hodisa sifatida emas, balki muayyan davrning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlariga javob beruvchi badiiy tizim sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Ozod Sharafiddinov. Adabiy etyudlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968
- 2.Sharafiddinov, O. Zamon. Qalb. Poeziya — Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
- 3.Sharafiddinov, O. Iste'dod jilolari — Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
- 4.Ozod Sharafiddinov. O'zbek adabiy tanqidida zamonaviy muammolar. Toshkent: Adabiyot va San'at, 2010.
- 5.Zulfiya. Tanlangan she'rlar. Toshkent: Sharq, 2008.